



YOSHLAR ONGIDA EKOLOGIK ADOLAT VA MADANIY TENGLIK TUSHUNCHALARINING SHAKLLANISHI

Saydullayev Abduhalim Abdusalim o'g'li

Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti Chirchiq filiali

“Tibbiy-biologik kimyo” kafedrasi mudiri, PhD

Dananova Dinora Xasan qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti Chirchiq filiali

“Davolash va Pediatriya” fakulteti Pediatriya ishi

yo'nalishi PI24-02b-guruh talabasi

dinoradananova518@gmail.com

Saydullayev Sarvar Abdusalim o'g'li

Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti Chirchiq filiali

“Tibbiy-biologik kimyo” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy globallashuv, ekologik muammolarning chuqurlashuvi, iqlim o'zgarishlari va atrof-muhit degradatsiyasi sharoitida ekologik adolat va madaniy tenglik masalalari barqaror rivojlanishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar ongida ushbu tushunchalarning shakllanishi jamiyatning ekologik barqarorligi va ijtimoiy adolatli rivojlanishini ta'minlashda va kelajakda ekologik mas'uliyatli jamiyatni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida O'zbekiston yoshlarida ekologik adolat va madaniy tenglik haqidagi bilimlari, munosabatlari ilmiy-nazariy va tahliliy yondashuv asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ekologik adolat, madaniy tenglik, yoshlar, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim.

Tadqiqot ishining nazariy-metodologik asosi ekologik adolat konsepsiyasi, barqaror rivojlanish nazariyasi hamda madaniy tenglik tamoyillariga asoslanadi. Ekologik adolat tushunchasi ekologik resurslardan foydalanish va ekologik xavflarning jamiyat qatlamlari o'rtasida adolatli taqsimlanishini ifodalasa, madaniy tenglik tushunchasi barcha ijtimoiy va madaniy guruhlarining ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida teng ishtirok etishini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida yoshlar orasida ekologik adolat va madaniy tenglik tushunchalarining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — ta'lim tizimi, oilaviy va milliy qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, ekologik ta'lim va tarbiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi yoshlarning ekologik



muammolarga befarq munosabatda bo'lishiga olib kelishi mumkinligi asoslanadi. Shu bilan birga, milliy madaniyat va an'analar yoshlar ongida tabiatga ehtiyotkorlik va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhimligi ilmiy asoslanadi.

Tadqiqot ishi doirasida 2025-yilda O'zbekistonning turli hududlarida istiqomat qiluvchi 18–30 yoshdagi yoshlar o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazildi (respondentlar soni – 200 nafar). So'rovnoma ekologik adolat tushunchasidan xabardorlik darajasi, ekologik muammolarga munosabat hamda madaniy qadriyatlarning ekologik xulq-atvorga ta'sirini aniqlashga qaratildi.

Respondentlarning ekologik muammolarga munosabati (n = 200)

1-jadval.

T/r	Ko'rsatkich	Foiz (%)
1	Juda jiddiy muammo deb hisoblaydi	38
2	Jiddiy muammo deb hisoblaydi	30
3	O'rtacha muammo	22
4	Jiddiy emas	10

“Ekologik adolat” tushunchasidan xabardorlik darajasi

2-jadval.

T/r	Javob variantlari	Foiz (%)
1	Juda yaxshi bilaman	18
2	Umumiy tushuncham bor	23
3	Eshitganman, lekin aniq bilmayman	31
4	Umuman bilmayman	28

Madaniy qadriyatlarning ekologik ongga ta'siri

3-jadval.

T/r	Ko'rsatkich	Foiz (%)
1	Tabiatga ehtiyotkorlikni targ'ib qiladi	72
2	Qisman targ'ib qiladi	19
3	Targ'ib qilmaydi	9

Yoshlarning ekologik qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki

4-jadval.

T/r	Javob variantlari	Foiz (%)
1	Yetarli darajada ishtirok etadi	15



2	Qisman ishtirok etadi	30
3	Yetarli darajada ishtirok etmaydi	55

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston yoshlarida ekologik muammolarga nisbatan umumiy xabardorlik darajasi nisbatan yuqori ekanini ko'rsatdi. Respondentlarning katta qismi ekologik muammolarni jiddiy ijtimoiy muammo sifatida baholagan bo'lsa-da, lekin ekologik adolat tushunchasining mazmuni yetarli darajada shakllanmaganligi ko'rsatdi.

Tadqiqot shuningdek, milliy madaniyat va an'analar yoshlar ongida tabiatga ehtiyotkor munosabatni shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Respondentlarning aksariyati madaniy qadriyatlarda ekologik mas'uliyat mavjudligini tan olgan bo'lsa-da, ammo bu qadriyatlarning kundalik hayotda va amaliy ekologik xulq-atvorda yetarli darajada namoyon bo'lmayotgani kuzatildi. Bu esa madaniy meros va zamonaviy ekologik ta'lim o'rtasidagi integratsiya yetarli emasligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik adolat va madaniy tenglikni ta'minlash uchun yoshlarni ekologik tashabbuslarga faol jalb etish, ularning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirish hamda ta'lim dasturlarida ushbu tushunchalarni tizimli ravishda integratsiya qilish zarur. Bu esa O'zbekistonda barqaror ekologik rivojlanish va madaniy uyg'unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-iyuldagi qarori. *O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish va ekologik siyosat konsepsiyasi*. Tashkent.
2. Agyeman, J., Bullard, R. D., & Evans, B. (2016). *Just sustainabilities: Development in an unequal world* (2nd ed.). MIT Press.
3. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations. <https://sdgs.un.org/2030agenda>
4. Walker, G., & Bulkeley, H. (2006). Geographies of environmental justice. *Geoforum*, 37(5), 655–659. <https://doi.org/10.1016/j.geoforum.2005.07.003>
5. Cutter, S. L., Boruff, B. J., & Shirley, W. L. (2003). Social vulnerability to environmental hazards. *Social Science Quarterly*, 84(2), 242–261. <https://doi.org/10.1111/1540-6237.8402002>
6. UNESCO. (2017). *Education for sustainable development goals: Learning objectives*. Paris: UNESCO.

